

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

TO‘XTASINOV RO‘ZIMUXAMMAD NURMAXAMAD O‘G‘LI

**X-XIII ASRLAR MOVAROUNNAHR KLASSIK FIQH
MANBALARIDA QIMMATBAHO TOSHLARDAN FOYDALANISH
HUKMLARI**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**ISLOM SHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on Islamic
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
исламским наукам**

To‘xtasinov Ro‘zimuxammad Nurmaxamad o‘g‘li

X–XIII asr Movarounnahr klassik fiqh manbalarida qimmatbaho toshlardan
foydalanish hukmlari.....3

Tukhtasinov Ruzimukhammad Nurmakhamad o‘g‘li

Rulings on the use of precious stones in the classical sources of fiqh of
Movarounnahr in 10-13th centuries.....23

Тўхтасинов Рўзимухаммад Нурмахамад ўғли

Заключения по использованию драгоценных камней в классических
источниках по фикху в Мавераннахре в X–XIII веках.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works
Список опубликованных работ48

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

TO‘XTASINOV RO‘ZIMUXAMMAD NURMAXAMAD O‘G‘LI

**X-XIII ASRLAR MOVAROUNNAHR KLASSIK FIQH
MANBALARIDA QIMMATBAHO TOSHLARDAN FOYDALANISH
HUKMLARI**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**ISLOM SHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Isl45 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.iiu.uz) hamda “ZiyoNET” Axborot ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bekmirzayev Ilhomjon Isroiljonovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mo‘minov Ashirbek Kurbanovich
tarix fanlari doktori, professor

Nasrullayev Nematilla Hikmatillayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot
markazi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «___» avgust soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, e-mail: info@iiu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (160-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, e-mail: info@iiu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «_____» iyul kuni tarqatildi.
(2024-yil 02-iyuldagi 07-raqamli reestr bayonnomasi).

D.R. Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

S.A. Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

Z.M. Islamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyo tarixidan ma'lumki, ma'danlar, qimmatbaho toshlar, jumladan tilla, kumush, yoqut, olmos, marvarid, zumrad kabi mahsulotlar insonlar tomonidan katta qiziqish bildirilgan resurslardan biri bo'lib, ular o'zaro aloqalarni amalga oshirish, davlatlarning ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlarini yo'lga qo'yish, xalq farovonligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek ular energetika, kimyo, qurilish, zargarlik, tibbiyot sohalarining rivojlanishida yordamchi manba sanaladi. Shundan kelib chiqib, qimmatbaho toshlarga nisbatan shar'iy munosabat islomshunos olimlar, faqihlarning nazaridan chetda qolmagan. Islom dini paydo bo'lgandan (VII asr) to hozirgi XXI asrga qadar musulmonlar ma'danlarga oid ibodat va moliyaviy muomalalarni amalga oshirishda faqihlarning chiqargan fatvolariga asosan ish tutganlar. Insonlarning urf-odati, an'anasi, turmush tarzi o'zgaruvchan ekanini inobatga olib, har bir zamon va mintaqa olimlari qimmatbaho toshlarga doir masalalarni og'zaki va yozma tarzda nazariy asoslab berishi dolzarb ish hisoblangan.

Jahondagi zamonaviy xalqaro islom universitet va ilmiy-tadqiqot markazlarida ma'danlar, qimmatbaho toshlardan foydalanish hukmlari bo'yicha ilmiy ishlar olib borilayotgani ushbu yo'nalishning ilmiy ahamiyati bugungi kunda ham yuqori ekanini anglatadi. Mazkur tadqiqotlarda qimmatbaho toshlarni konlardan qazib olish (الركاز), unga egalik qilish (التملك), saqlash (الإدخار), tasarruf qilish (التصرف), sotish va sotib olish (البيع والشراء), vaqf qilish (الوقف), tabobatda qo'llash (التداوي) kabi ishlarning shar'iy nuqtai nazari o'rganilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda hanafiy mazhabi, jumladan, Movarounnahr fiqh manbalari asosida ma'danlarga doir hukmlarning o'ziga xos jihatlari, faqihlar tomonidan mintaqaviy muammolarga berilgan yechimlar, mahalliy fatvolarning o'xshash va farqli jihatlarni o'rganish zamonaviy muammolarga yechim topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar hanafiy fiqhi va mazhab ulamolarining ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish hamda uni jamoatchilikka yetkazishda keng imkoniyatlarni yaratmoqda. Buning natijasi o'laroq olimlar tomonidan Burhoniddin Marg'inoniyning "الهداية" [Hidoya] – "To'g'ri yo'l", Ubaydulloh ibn Mas'udning "مختصر الوقاية" [Muxtasarul viqoya] – "Viqoyaning qisqartmasi", Alouddin Kosoniyning "بدائع الصنائع في ترتيب الشرائع" [Badao'us-sanoe fi tartibish-sharoe] – "Shar'iy hukmlarni tartibga solishdagi go'zal san'atlar" kabi asarlarining o'zbek tilidagi izohli tarjimasini amalga oshirilishi, sharhlanishi, turli mavzudagi kitob va risolalar chop etilishi qimmatbaho toshlarning zamonaviy, mintaqaviy muammolariga yechim bo'lmoqda. Shu bois Movarounnahr faqihlarining klassik asarlari asosida qimmatbaho toshlar iste'moliga doir hukmlarni chuqur ilmiy tahlil qilish sohadagi tadqiqotlarning izchil davomi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 10-fevralda PQ-126-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq etish tizimini takomillashtirishga qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni tarixiy nuqtai nazardan uch bosqichga: X-XIII, XIV-XX hamda XXI asrlarga oid mumtoz va zamonaviy tadqiqotlarga ajratish mumkin.

X-XIII asrlar mobaynida Alouddin Samarqandiy (vaf. 539/1145), Nosuriddin Samarqandiy (556/1161), Sirojiddin Ali ibn Usmon O'shiy (vaf. 575/1179), Alouddin Kosoniy (vaf. 587/1191), Faxriddin Qozixon (592/1196), Burhoniddin Marg'inoniy (593/1197), Burhoniddin Mahmud ibn Ahmad Buxoriy¹ (616/1219), kabi faqihlar fiqh ilmini eng rivojlangan darajaga olib chiqdilar. Shuning uchun ularning matn, sharh, hoshiya yo'nalishidagi asarlari tadqiqot mavzusini tizimli o'rganishda, mazhab va mazhablararo qarashlarni o'zaro qiyoslashda asos sanaladi.

Husomiddin Sig'noqiy (vaf. 710/1310), Akmaliddin Bobartiy (vaf. 714/1314), Ubaydulloh ibn Mas'ud (vaf. 747/1346), Qivomiddin Kokiy (vaf. 749/1348), Qivomuddin Itqoniy (vaf. 758/1357), Jamoliddin Zaylaiy (vaf. 762/1360), Badruddin Ayniy (vaf. 855/1451), Kamol ibn Humom (vaf. 861/1457), Zayniddin ibn Nujaym Misriy (vaf. 970/1563), Mulla Ali Qori² (vaf. 1014/1606) kabi faqihlar esa X-XIII asrlarga doir Movarounnahr fiqh manbalariga sharh, hoshiya, ta'liq yozish orqali qimmatbaho toshlarga doir masalalarni yanada qaror toptirishga xizmat qildi. Shuningdek, XIX asrda yashab ijod etgan Ibn Obidin (vaf. 1252/1836), Abdul G'aniy Maydoniy (vaf. 1298/1881), Abdul Hay Laknaviy³ (vaf.

¹ علاء الدين السمرقندي. تحفة الفقهاء. - بيروت: دار الكتب العلمية، 1994. - ج. 2. - 375 ص. ناصر الدين السمرقندي. الفقه النافع. - الرياض: أيبكان، 2000. - ج. 2. - 440 ص. سراج الدين الحنفي. فتاوى السراجية. - دار العلوم زكريا، 2011. - 696 ص. علاء الدين الكاساني. بدائع الصنائع في ترتيب الشرائع. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2003. - ج. 5. - 576 ص. فخر الدين قاضي خان. فتاوى قاضي خان. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2009. - ج. 2. - 639 ص. برهان الدين المرغيناني. متن بداية المبتدي في فقه الإمام أبي حنيفة. - القاهرة: مطبعة محمد علي صبح. - 267 ص. برهان الدين محمود بن أحمد البخاري. المحيط البرهاني في الفقه النعماني. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2004. - ج. 2. - 495 ص.
² حسين بن علي السغناقي. النهاية في شرح الهداية. - مكة: جامعة أم القرى، 1436. - ج. 1. - 484 ص. أكمل الدين البائري. العناية شرح الهداية. - مصر: شركة مكتبة ومطبعة مصطفى البابي الحلبي وأولاده، 1970. - ج. 1. - 680 ص. عبيد الله بن مسعود. مختصر الوقاية. - طشقند: ماوراء النهر، 1991. - 190 ص. عبيد الله بن مسعود. شرح الوقاية. - عمان: الوراق، 2006. - ج. 1. - 118 ص. قوام الدين الكاكي. معراج الدراية في شرح الهداية. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2023. - ج. 1. - 1056 ص. قوام الدين الإيتقاني. غاية البيان ونادرة الزمان في آخر الأوان. - تركيا: ملت كئل، وقف فيض الله أفندي. مخطوطة برقم 871. - 530 ص. جمال الدين الزيلعي. نصب الراية لأحاديث الهداية. - جدة: دار القبلة والثقافة الإسلامية، 2011. - ج. - 2342 ص. بدر الدين العيني. البناية شرح الهداية. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2000. - ج. 7. - 540 ص. كمال الدين بن الهمام. فتح القدير على الهداية. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2003. - ج. 1. - 650 ص. ابن نجيم المصري. البحر الرائق شرح كنز الدقائق. - بيروت: دار الكتب العلمية، 1997. - ج. 1. - 671 ص. علي بن سلطان محمد القاري. فتح باب العناية بشرح «النقاية». - بيروت: دار الأرقم بن أبي الأرقم، 1997. - ج. 1. - 752 ص.
³ ابن عابدين. حاشية رد المحتار على الدر المختار شرح تنوير الأبصار. - مصر: شركة مكتبة ومطبعة مصطفى البابي الحلبي وأولاده، 1966. - ج.

1304/1886) kabi olimlarning asarlarida ham qimmatbaho toshlardan foydalanishga oid masalalar keng o'rganilgan hamda klassik manbalar asosida o'sha vaqtda paydo bo'lgan muammolarga yechimlar berilgan.

Mavzu yuzasidan sharq va g'arb tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan zamonaviy tadqiqotlarni tillar bo'yicha quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

Arab tilida Vahba Zuhayliy (vaf. 1435/2015), Muhammad Taqiy Usmoniy, Yusuf Qarzoviy, Said Bektosh, Doktor Solih Sharif, Doktor Saloh Abul Hoj, Abir binti Ali Madiyfar, Odil Muhammad Amin Toyyib Ro'ziy⁴ kabi olimlar qimmatbaho toshlar savdosi, ziynatlanish hukmlari, ma'danlar zakotining iqtisodiy rivojlanishda tutgan o'rni kabi muhim mavzularda tadqiqot olib borgan.

Ingliz tilida Ibrahim Ramjaun, Md Zafar Alam Bhuiyan, Gholamreza Atei, Fatemeh Rezaei, Mahboubeh Khadem Abolfazl, Nouredine Krichene, Hassan Ghassan⁵, rus tilida esa A. Nasirov, T. Ignatova, A. Dobaev, S. Nesturov, B. Nuriev.⁶ kabi olimlar tomonidan tadqiqot mavzusi turli rakursdan o'rganilgan. Turk tadqiqotchilaridan Yusuf Erdem Gezgin, Haçi Çiçek, Mehmet Çetin, Hasan Koçabas⁷ kabi olimlar qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlari yasash hamda uni tibbiyotda qo'llash kabi ishlarning shar'iy nuqtai nazarini o'rgangan.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha o'zbek tilida R.Zohid, A.Dehqon, Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja, Shayx Abdulaziz Mansur, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, A.Saidov, A.Qambarov, I.Bekmirzayev, R.Abdullayev⁸ kabi bir qator

2. – 628 ص. عبد الغني الغنيمي الدمشقي الميداني. اللباب في شرح الكتاب. – بيروت: المكتبة العلمية، 2014. – ج. 1. – 560 ص. عبد الحي الكنوي. عمدة الرعاية على شرح الوقاية. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2000. – ج. 1. – 574 ص.
4 وهبة الزحيلي. فقه الإسلام وأدلته. – دمشق: دار الفكر، 1985. – ج. 1. – 547 ص. محمد تقي العثماني. بحث في قضايا فقهية معاصرة. – دمشق: دار القلم، 2003. – ج. 1. – 454 ص. فقه البيوع. – كراتشي: معارف القرآن، 2015. – ج. 1. – 625 ص. يوسف القرصاوي. فقه الزكاة. – بيروت: مؤسسة الرسالة، 2004. – ج. 1-2. – 1228 ص. سائد بكداش. تحقيق اللباب في شرح الكتاب. – بيروت: دار البشائر الإسلامية ودار السراج، 2014. – 3196 ص. المصنف غير محدد. المشرف: دكتور صالح شريف. أحكام الحلبي في الإسلام. رسالة ماجستير. أردن: الجامعة الإسلامية، 2000. – 164 ص. عيبر بنت علي مديفر. المشرف: دكتور عبد الله بن موسى عمار عظيم شكري. أحكام الزينة. رسالة ماجستير. – الرياض: جامعة الإمام محمد بن سعود الإسلامية، 2002. – 1154 ص. ختام العارف عماوي. المشرف: دكتور ناصر الدين الشاعر. دور الزكاة في التنمية الاقتصادية. رسالة ماجستير. – فلسطين: جامعة النجاح، 2010. – 213 ص. عادل محمد أمين الطيب روزي. المشرف الفقهي: د. محمد حلمي السيد عيسى. المشرف الاقتصادي: د. محمد أمين اللبائدي. أحكام الصرف في الإسلام. – الرياض: أم القرى، 1996. – 388 ص.

⁵ Ibrahim Ramjaun. Islam and Luxury Consumption Article. Université Paris Sorbonne Abu Dhabi. See discussions, stats and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/324828495> April 2018. – 16 p. Md Zafar Alam Bhuiyan. Islamic Fashion in South-East Asia: A Descriptive Research on web based Preprint. Shanto Mariam University of Creative Technology. See discussions, stats and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/327136868>. August 2018 DOI: 10.13140/RG.2.2.19161.98407. – 63 p. Gholamreza Atei, Fatemeh Rezaei and Mahboubeh Khadem Abolfazl. Why is Gold Forbidden for Men in Islam An original study. <https://www.researchgate.net/publication/277078212>. February 2015. License [CC BY 4.0](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/). – P. 11-14. Nouredine Krichene, Hassan Belkacem Ghassan. The Preeminence of Gold and Silver as Shariah Money. https://mpira.ub.uni-muenchen.de/95445/8/MPRA_paper_95445.pdf. Umm Al-Qura University, IMF. 2017. – 31 p.

⁶ Nasirov A. Zakyat (очистительная подать) как система социального обеспечения в исламской экономике. – Казан: Молодой учёный, 2011. ISSN 2072-0297. № 9 (32). – С. 99-104. Игнатова Т., Добаев А. Система «хавала» в исламской экономике. – Москва: «Россия и Мусульманский мир», 2017. – № 2. – С. 39-54. Nesturov S. Zakyat как способ преодоления бедности в мусульманском обществе. – Санкт-Петербург: Вопросы теологии, 2022. <https://doi.org/10.21638/spbu28.2022.204>. – Том. 4. – № 2. – С. 233–240. Нуриев Б. Zakyat в классическом мусульманском праве. – Кострома: Вестник КГУ им. Некрасова Н., 2015. – № 3. – С. 178-182.

⁷ Yusuf Erdem Gezgin. Fikhî açıdan altın mübadele işlemleri. – Konya: Necmettin Erbakan üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü temel islam bilimleri Anabilim dali islam hukuku bilim dali, 2019. – 314 s. Hacı Çiçek. Es-suyûti'nin Makâmât'ında konuşan değerli taşlar: el-makâmatu'l-yâkütiyye örneği. – Adiyaman: Adiyaman Üniversitesi İslami İlimler Fakültesi İslami İlimler Araştırmaları Dergisi 1 (2017/2), 21-42. Mehmet Çetin. İslam'da Kuyumculuk. – İstanbul: “Hayat yayınları”, 2014. – 448 s. <https://www.kitapyurdu.com/kitap/islamda-kuyumculuk/454010.html>. Hasan Koçabas. Şifali taşlar. – İstanbul: “Çınaraltı Yayınları”, 2017. <https://www.amazon.com/Sifali-Taslar-Hasan-Kocabas/dp/60555563908>. – 496 s.

⁸ Ubaydulloh ibn Mas'ud. (Nashrga tayyorlovchilar: R.Zohid, A.Dehqon). Muxtasar. – Toshkent: Cho'lpon, 1994. –

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan qimmatbaho toshlarga oid masalalarni qamrab olgan fiqhiy manbalarni ilmiy-zohli tarjima qilish, sharhlash, jumladan, mavzu doirasida risola, kitob, o‘quv qo‘llanma, ilmiy maqolalar nashr etish kabi ishlar amalga oshirilgan. Ammo o‘zbek tilida amalga oshirilgan ishlarda tadqiqot mavzusi kompleks tarzda alohida obyekt sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining 2020–2022 yillarga mo‘ljallangan FZ-202002146 – “Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari asosida buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashning ma’rifiy, tarbiyaviy asoslarini o‘zida jamlagan multimedia dasturi hamda mobil ilovasini yaratish” mavzuidagi ilmiy loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi X-XIII asrlar Movarounnahr fiqh manbalarida qimmatbaho toshlardan foydalanishga doir hukmlarni ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

X-XIII asrlar Movarounnahr fiqh manbalarida qimmatbaho toshlarga doir masalalarning metodologik asoslarini aniqlash;

qimmatbaho toshlar tushunchasiga munosabatlar va atamalarni tahlil qilish;

qimmatbaho toshlarga doir masalalar borasida amalga oshirilgan zamonaviy tadqiqotlarni aniqlash;

matn, sharh va fatvo yo‘nalishidagi manbalari asosida ayollarning ziynat buyumlaridan foydalanishiga oid hukmlarni belgilab berish;

erkaklarning ma’danlar iste’moliga doir masalalar tahlilini amalga oshirish;

maishiy hayotda ma’danlardan foydalanish hukmlarini ochib berish;

naqd pul va tijorat mollarining zakotiga doir masalalarni asoslab berish;

ma’danlarning savdosi va vaqfiga doir hukmlarni aniqlash;

qimmatbaho toshlardan foydalanishning zamonaviy fiqhiy jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berishdan iborat.

Dissertatsiyaning obyektini X-XIII asrlar Movarounnahr fiqh manbalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti X-XIII asrlar Movarounnahr fiqh manbalaridagi qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq hukmlar, fatvolardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, dialektik, tizimlilik, muammoviy-maqsadli, analiz, sintez va qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullari hamda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

X-XIII asrlarda Movarounnahr tangalaridagi kumush nisbati shar’iy dirham (الدرهم الشرعي)dan kamayib ketgani bois zakot nisobini tangalarning soni emas,

450 b. Maqsudxo‘ja ibn Mansurxo‘ja. Majmaul maqsud. – Toshkent: Sharq, 2015. – 608 b. Burhoniddin Marg‘inoniy. (Tarjimon: A.Saidov va boshqalar). – Toshkent: Adolat, 2000. – 500 b. Burhoniddin Marg‘inoniy. (Tarjimon: A.Qambarov, I Bekmirzayev). Hidoya. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. – J. 1. – 894 b. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2014. – J. 2. – 584 b. Mo‘minning najoti. Mufassal zakot kitobi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – 200 b. Hadis va hayot – Savdo, ziroat va vaqf. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2014. – J. 11. – 304 b. Abdullayev R. Islom iqtisodiyotida savdo va tadbirkorlik. – Toshkent: “Lesson press”, 2022. – 232 b.

balki, ular tarkibidagi kumushning og'irligiga muvofiq belgilash amaliyoti joriy etilishi natijasida mintaqada yuzaga kelgan zakot bilan bog'liq muammolarning yechimi bo'lib xizmat qilgani asoslangan;

Burhoniddin Mahmud Buxoriyning "Muhit" asarida dinor (الدينار) va dirham (الدرهم)larni muomalaga kiritish bilan bog'liq: ularning tovar va xizmatlar uchun o'lchov bo'lishi, hammaga ma'lum hokimiyat tomonidan ishlab chiqarilishi, ommaga mashhur bo'lishi kabi shartlarning belgilanishi zamonaviy qog'oz va elektron pullar muomalasining shar'iy yechimiga asos bo'lib xizmat qilgani dalillangan;

Burhoniddin Mahmud Buxoriyning "Muhit" va Faxriddin Qozixonning "Fatavo" asarlarida Movarounnahrda "g'atrifiy", "buxoriy", "sattuqo", "nabahraja", "idoliy", "farg'oniy", "fulus" nomli tanga turlari mavjud bo'lib, Qur'on va hadisda zikr qilinmagani bois ularning zakoti vazniga emas, balki qiymatining tilla yoki kumush nisobiga qarab hisoblanishi lozimligi to'g'risidagi qoida ishlab chiqilgani ilmiy asoslangan;

Movarounnahr faqihlari mazhab yetakchilaridan biri - Imom Muhammadning tilla-kumush va boshqa qimmatbaho toshlarning vaqfi joizligi haqidagi fatvolarini amaliyotga joriy etgani "Fatavo Qozixon" asarining وقف المنقول [vaqful manqul] – "ko'char mulkning vaqfi" mavzusi bilan dalillanib, uning zamonaviy vaqf fondlari faoliyati uchun shar'iy asos bo'lib xizmat qilayotgani ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi. X-XIII asrlar Movarounnahr faqihlaridan biri Husomiddin Sodrush Shahidning حيرة الفقهاء [Hayratul-fuqaho] – "Faqihlarni hayratga solgan fatvolar" asarining 2009 yilda misrlik tadqiqotchi Sayyid Yusuf Ahmad nashri hamda Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi Asad Afandi bo'limida № 96-inventar raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozmasi qiyosiy tahlil qilinib, mavjud farqli jihatlar sabablari, ularning mazmunga ta'siri ko'rsatib berilgan;

X-XIII asrlar Movarounnahr fiqhiga oid jami 60 dan ortiq asar aniqlanib, ulardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozma fondida saqlanayotgan 34 ta manbaning mavzularini tasniflash asosida ulardagi qimmatbaho toshlar bilan bog'liq hukmlarning o'ziga xos jihatlari dalillangan;

"Badoeus-sanoe", "Hidoya", "Muhit", "Fatavo Qozixon" asarlarida tilla, kumush, olmos va boshqa qimmatbaho toshlardan uzuk, sirg'a, marjon kabi zebziynat buyumi sifatida foydalanish, ularni saqlash, tish, burun, qo'l, oyoq kabi a'zolarni davolash maqsadida tilla yoki kumushni qo'llashga doir 34 ta, ularning zakotiga oid 105 ta, savdosi, ijarasi, vaqfi va boshqa muomalalarga doir 84 ta mahalliy fatvolar amalda bo'lgani aniqlangan;

Burhoniddin Marg'inoniyning «Hidoya» asari asosida qimmatbaho toshlarning zakoti, savdosi, egalik qilish, tasarruf qilishga doir masalalardan 144 ta usul va fiqh qoidalar aniqlandi hamda ular manbalarda ochiq keltirilmagan masalalarning yechimini topishda, bir-biriga o'xshash masalalarni aniqlashda amaliy yordam berishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uning O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

qo'lyozmalar fondida X-XIII asrlar Movarounnahr fiqhiga doir بداية المبتدي [Bidoyatul mubtadiy] – “Boshlovchilar uchun qo'llanma” asarining № 3895, الهداية [Hidoya] – “To'g'ri yo'l” asarining № 11302-I,II, المحيط البرهاني في الفقه النعماني, “Muhit Burhoniy fil-fiqhin-No'moniy” – “No'moniy fiqh bo'yicha Burhoniy qamrab oluvchi” asarining № 3161, بدائع الصنائع في ترتيب الشرائع [Badaoeus-sanoe fi tartibish-sharoe] – “Shar'iy hukmlarni tartibga solishdagi go'zal san'atlar” asarining № 11026, مختصر الوقاية [Muxtasarul viqoya] – “Viqoyaning qisqartmasi” asarining № 11703, الفقه النافع [al-Fiqh an-nofe] – “Foydali fiqh” asarining № 4704 va № 3032-inventar raqamlar ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari hamda ularning zamonaviy nashriga tayanilgani, dalillar bilan asoslangani, zamonaviy qiyosiy-tarixiy usullardan foydalanilgani hamda Sharq va G'arb islomshunoslik maktablarida shakllangan qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgani, tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda bayon etilgan X-XIII asrlar Movarounnahr fiqh manbalarida keltirilgan qimmatbaho toshlarga doir hukmlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati borasidagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va mulohazalardan sohaga oid kelgusi ilmiy tadqiqot va izlanishlarga asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati X-XIII asrlar Movarounnahr fiqh manbalarida qimmatbaho toshlarning hukmlariga doir ilgari surilgan ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy g'oyalardan “Islom tarixi va manbashunosligi”, “Islom huquqi” fanlari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, ilmiy-ommabop risolalar, diniy ta'lim muassasalari mutaxassis kadrlari uchun mo'ljallangan maxsus kurslar bo'yicha o'qiladigan ma'ruzalarda, o'quv-uslubiy dasturlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. X-XIII asrlar Movarounnahr klassik fiqh manbalarida qimmatbaho toshlardan foydalanish hukmlari mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

X-XIII asrlarda Movarounnahr tangalaridagi kumush nisbati shar'iy dirham (الدرهم الشرعي) dan kamayib ketgani bois zakot nisobini tangalarning soni emas, balki, ular tarkibidagi kumushning og'irligiga muvofiq belgilash amaliyoti joriy etilishi natijasida mintaqada yuzaga kelgan zakot bilan bog'liq muammolarning yechimi bo'lib xizmat qilgani asoslangani haqidagi ilmiy xulosalar O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining buyurtmasi asosida chop etilgan “Hayratul fuqaho” kitobining ilmiy izohli tarjimasi mazmuniga singdirildi (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2024-yil 19-martdagi № 02-02.864-son ma'lumotnomasi). Natijada Movarounnahr faqihlari tarixda mintaqaviy muammolarga nisbatan qanday shar'iy yechim bergani haqidagi ma'lumotlar ilmiy jamoatchilikka yetib borishiga xizmat qilgan;

Burhoniddin Mahmud Buxoriyning “Muhit” asarida dinor (الدينار) va dirham (الدرهم) larni muomalaga kiritish bilan bog'liq: ularning tovar va xizmatlar uchun o'lchov bo'lishi, hammaga ma'lum hokimiyat tomonidan ishlab chiqarilishi, ommaga mashhur bo'lishi kabi shartlarning belgilanishi zamonaviy qog'oz va

elektron pullar muomalasining shar'iy yechimiga asos bo'lib xizmat qilgani dalillangani xususidagi xulosalardan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan tayyorlangan "Sunani Termiziy sharhi" kitobining mazmuniga singdirildi (O'zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 20-dekabrda № 01-07/251-son ma'lumotnomasi). Natijada X-XIII asrlar Movarounnahr faqihlari tomonidan chiqarilgan fatvolarning o'rganilishi bugungi kundagi zamonaviy masalalarga yechim berishda o'ziga xos xizmat qilgan;

Burhoniddin Mahmud Buxoriyning "Muhit" va Faxriddin Qozixonning "Fatavo" asarlarida Movarounnahr diyorlarida "g'atrifiy", "buxoriy", "sattuqo", "nabahrja", "idoliy", "farg'oniy", "fulus" nomli tanga turlari mavjud bo'lib, Qur'on va hadisda zikr qilinmagani bois ularning zakoti vazniga emas, balki qiymatining tilla yoki kumush nisobiga qarab hisoblanishi lozimligi to'g'risidagi qoida ishlab chiqilgani ilmiy asoslangani haqidagi ilmiy xulosalar O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi Mir Arab oliy madrasasida nashr etilgan "Usulul fiqh" o'quv qo'llanmasiga singdirilgan (O'zbekiston musulmonlari idorasining 2023-yil 20-noyabrda № 4920-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi diniy ta'lim muassasalari talabalarining ma'danlar zakotiga doir masalalar orqali mazhab imomlarining usul va fiqh qoidalarini o'zlashtirishiga xizmat qilgan;

Movarounnahr faqihlari mazhab yetakchilaridan biri – Imom Muhammadning tilla-kumush va boshqa qimmatbaho toshlarning vaqfi joizligi haqidagi fatvolarini amaliyotga joriy etgani "Fatavoi Qozixon" asarining وقف المنقول [vaqful manqul] – "ko'char mulkning vaqfi" mavzusi bilan dalillanib, uning zamonaviy vaqf fondlari faoliyati uchun shar'iy asos bo'lib xizmat qilayotgani to'g'risidagi ilmiy xulosalar "Hidoya" asarining izohli akademik tarjimasiga singdirildi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining 2024-yil 12-martda № 08-17/115-son ma'lumotnomasi). Natijada bugungi kundagi islom ulamolari Movarounnahr faqihlarining fatvo uslubini amaliyotda qo'llayotgani haqidagi qarashlarni keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 11 ta – 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 27 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 9 ta maqola, ulardan 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda va 7 ta maqola boshqa jurnallarda chop etilgan. 3 ta xalqaro va 8 ta mahalliy anjuman to'plamlarida tezislari e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi, kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 155 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va uning vazifalari, o'rganish obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“X-XIII asrlar movarounnahr klassik fiqh manbalari va zamonaviy tadqiqotlarda qimmatbaho toshlarga doir masalalarning o'rganilish metodlari”**, deb nomlanadi.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“X-XIII asrlar Movarounnahr fiqh manbalarida qimmatbaho toshlarga doir metodologik yondashuvlar”*, deb nomlanib, unda hanafiy mazhabining Movarounnahrda kirib kelishi, tarqalishi, X-XIII asrlarda o'lkada hanafiy fiqhida yozilgan asarlar tasnifi va ularning qimmatbaho toshlarni o'rganish metodologiyasi ochib berildi. Movarounnahrlik faqihlar tomonidan yozilgan X-XIII asrlarga oid jami 60 dan ortiq asarlar bor ekani aniqlandi. Shulardan O'zbekiston fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti sharq qo'lyozmalari fondida saqlanayotgan jami 34 ta asarning inventar raqamlari dissertatsiyada ko'ristib o'tildi.

[Biboyatul mubtadiy] بداية المبتدي, “Faqihlar tuhfası”, [Tuhfatul fuqaho] تحفة الفقهاء – “Boshlovchilar qo'llanmasi”, [Viqoyatur rivoya fi masailil hidoya] وقاية الرواية في مسائل الهداية, “Hidoya masalalari bo'yicha rivoyatlarni saqlash”, كنز [Muxtasarul viqoya] مختصر الوقاية, “Nozik masalalar xazinasi”, [Kanzud daqoiq] الدقائق [Fatavoi Qozixon] – “Qozixonning fatvolari” kabi asarlar متن [matn] yo'nalishida bo'lib, ular qimmatbaho toshlarga doir ma'lumotlarni keltirishda qisqa, aniq, eslab qolishga qulay ekani bilan boshqa yo'nalishdagi manbalardan ajralib turadi. Undan tashqari matn mualliflari har bir mavzuning bayonida “Zohirur rivoya”⁹ dan tashqariga chiqmaslikka, kuchsiz rivoyatlardan foydalanmaslikka harakat qilgan. Misol uchun “Muxtasarul Viqoya” asarida tilla kumushning zakoti borasida: “Tillaning nisobi yigirma misqoldir. Kumushniki esa ikki yuz dirhamdir”, deyiladi¹⁰. Ushbu hukmning naqliy va aqliy dalili, faqihlarning ixtiloflari nimalardan iborat ekani bo'yicha bahs munozalarga kirishilmagan. Shuning uchun bunday ma'lumotlarni o'zlashtirishda الهداية [Hidoya] – “To'g'ri yo'l”, المحيط البرهاني, [Badaoeus-sanoe fi tartibish-sharoe] بدائع الصنائع في ترتيب الشرائع, “Muhit Burhoniy fil-fiqhin-No'moniy” – “No'moniy fiqh bo'yicha Burhoniy qamrab oluvchi”, فتاوى قاضيخان [Fatavoi Qozixon] – “Qozixonning fatvolari” kabi sharh hamda fatvo yo'nalishidagi kitoblar alohida ahamiyatga ega. “Zakot kitobi”ning “Mutlaq (doimiy) pullar – tilla, kumush”, “Tijorat mollari”, “Fitr sadaqasi” boblarida,

⁹ “Zohirur rivoya” hanafiy mazhabi imomlarining yeng kuchli naql bilan yetib kelgan manbalar to'plamidir (وهبة (الزحيلي). فقه الإسلام وأدلته. – دمشق: دار الفكر، 1985. ج. – ص. 547.

¹⁰ مختصر الوقاية. عبيد الله بن مسعود. – Qozon: “Центральная”, 1911. – В. 35.

“Savdolar” kitobining “Badalga (sotib olinayotgan narsaning to‘loviga) taalluqli shartlar”, “Ribo” (sudxo‘rlik), “Sarf” (naqd pul ayirboshlash) fasllarida, “Istehson” kitobining “Libos”, “Yeyish” bo‘limlarida qimmatbaho toshlarga doir masalalar o‘rganilgan¹¹. Faqihlar tadqiqotga oid mavzularga nom, joy tanlash, dalillarni tartiblash borasida mustaqil va o‘z uslubiga ega bo‘lganlar. Shuningdek bu janrdagi asarlar mazhablar orasidagi ixtiloflarni bayon qilish hamda fiqhiy qarashlardan birini tarjih qilish (ustunlik jihatlarini o‘rganish), o‘xshash masalalarni jamlovchi usuliy va fiqhiy qoidalar keltirish uslubida yozilgan. Shu e‘tibordan, sharh janridagi manbalar المقارن [Fiqhul muqorin] – “Mazhablararo qiyoslash” fanini shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Birinchi bobning “*Qimmatbaho toshlar tushunchasiga munosabatlar va atamalar tahlili*” nomli bandida qimmatbaho toshlarga doir istilohlar ilmiy tahlil qilindi. Qimmatbaho toshlar fiqh va arab tili manbalarida حلي [halyun] deyilib, uning ma‘nosi “ma‘dan” yoki “toshlardan yasalgan, ziynat uchun ishlatiladigan mahsulot” degan so‘zlarga to‘g‘ri keladi¹². Shuningdek, معدن (ma‘dan) tabiiy tarzda yer ostida uchraydigan, كنز (kanz) esa inson omili bilan yer ostiga ko‘milgan, ركاز (rikoz) esa ikkala ma‘noda ham qo‘llaniladigan atamadir. Shuningdek qimmatbaho toshlarga nisbatan umumiy tarzda “الأحجار الكريمة” [al-ahjar al-karima], “الآحجار الثمينة” [al-ahjar as-samina] degan ibora ham qo‘llanilgan. Bu atamalar borasida hanafiy mazhabi faqihlari bilan boshqa mazhab faqihlari orasida o‘xshash va farqli jihatlar mavjud bo‘lib, bu farqlar hukmlarning farqli bo‘lishiga ham ta‘sir qilgan.

Tilla va kumushdan yasalgan tangalar naqd, dinor, dirham, variq, tibr, nuqra, sabiyka, jiyod, zayuf, sattuqa, nabahraja, fals kabi nomlar bilan atalgan. Tangalarga bunday nom berilishida uning qay holda tayyorligi, tarkibidagi tilla va kumushning miqdori, pulning sifat darajasi kabi jihatlar e‘tiborga olingan. Shuningdek “Muhit” asarida: وضخ [vadoxun] – “taqinchoq”, تاج [tojun], إكليل [ikliylun] – “toj”, عقد [iqdun], قلادة [qilodatun] – “marjon” (bo‘yinga taqiladigan), قرط [qurtun] – “zirak”, خاتم [xotamun] – “uzuk”, فتح [fataxun] – “ko‘zsiz uzuk”, خلخال [xolxolun] – “halqa” (ayollarning oyog‘iga taqiladigan taqinchoq), مسك [masakun], سوار [sivarun], قلب [qulbun] – “bilaguzuk” kabi qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlar iste‘moli odamlar orasida urf bo‘lgani aytiladi¹³. Jumladan, qimmatbaho toshlarning tahorati (poklash), zakoti, nisobi, vaqfi, bayi (savdosi), ijarasi, oriyasi kabi atamalarning fiqhiy ma‘nosini bilish ularga aloqador hukmlarni bilishga asos bo‘ladi.

Birinchi bobning “*Ma‘danlar bo‘yicha amalga oshirilgan zamonaviy tadqiqotlar*” nomli bandida esa mavzuning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyatidan kelib chiqib, bugungi kunda amalga oshirilgan zamonaviy tadqiqotlar o‘rganildi. Qimmatbaho toshlardan foydalanish hukmlari borasida arab, ingliz, turk va boshqa bir nechta tillarda tadqiqotlar amalga oshirilgan. Albatta, ularning ichida islom ulamolari tomonidan e‘tirof etilib, amaliyotga joriy qilinganlari, ayrim juz‘iy kamchiliklar tufayli ba‘zi e‘tiroz va tanqidga

¹¹ علاء الدين الكاساني. بدائع الصنائع في ترتيب الشرائع. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2003. - ج. 2. - ص. 371.

¹² ابن عابدين. حاشية رد المحتار على الدر المختار شرح تنوير الأبصار. - الرياض: دار عالم الكتب، 2003. - ج. 3. - ص. 277. وزارة الأوقاف والشؤون الإسلامية. الموسوعة الفقهية الكويتية. - الكويت: مكتبة العال، 1983. - ج. 18. - ص. 109.

¹³ برهان الدين محمود بن أحمد البخاري. المحيط البرهاني في الفقه النعماني. - بيروت: دار الكتب العلمية. 2004. - ج. 5. - ص. 346.

uchraganlari mavjud. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarning deyarli barchasida hanafiy mazhabining qarashlarini o'rganishda Movarounnahr fiqh manbalariga murojaat qilingan.

Darhaqiqat, islom huquqi manbalarida qimmatbaho toshlarga doir shar'iy hukmlarni keltirish bilan bir qatorda o'sha davrdagi aholining turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, ilmiy-ma'rifiy dunyoqarashi muhokama qilinadi. Shuningdek qimmatbaho toshlardan yasalgan tangalarning og'irligi, shakl-u shamoili haqida ma'lumotlar beriladi. Mahalliy hukmdorlar zarb qilgan tangalar, ularga berilgan nomlar fiqhiy hukmlar bayoni asnosida keltirib o'tiladi. Shunga ko'ra zamonaviy tadqiqotlarni amalga oshirishda Movarounnahr mintaqasiga xos hukmlarni aniqlashda ushbu mintaq faqihlariga mansub manbalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Furuul fiqh manbalarida qimmatbaho toshlardan ziynat maqsadida foydalanish hukmlari”**, deb nomlanadi.

Bobning birinchi bandi *“Ayollarning ma'danlardan ziynat buyumi sifatida foydalanishi borasidagi ruxsat va ta'qiqqlarning shar'iy asoslari”*, deb nomlanib, unda ayollarning ziynatlanishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, qimmatbaho toshlardan ziynat buyumi sifatida foydalanish to'g'risidagi shar'iy ruxsatlar (الإباحة) hamda chegaralar (الحظر) haqida faqihlarning qarashlari tahlil qilinadi. Barcha fiqh manbalari qatori Movarounnahr fiqh manbalarida ayollarning ziynat buyumlaridan foydalanish hukmlari o'ziga xos uslubda o'rganilgan.

“Hidoya”, “Badoeus-sanoe”, “Muhit” kabi asarlarda kelgan qarashlardan qimmatbaho toshlardan ziynat buyumi sifatida foydalanishning joiz yoki nojoiz ekani ikki narsa: ziynat buyumlari yasaladigan qimmatbaho toshning turi, undan foydalanishning kayfiyatiga bog'liq ekani mulohaza qilinadi. Erkak va ayollarga tegishli hukmlarning farqi asosan birinchi turda ko'rinadi. Ikkinchisida ularning hukmlari umumiy ekani tushuniladi. Shunga ko'ra, 1. Tilla va kumush; 2. Javohir, yoqut, zabarjad; 3. Temir mis, qo'rg'oshindan yasalgan ziynat buyumlarining hukmlari alohida muhokama qilingan. Mavzu yuzasidan mazhab faqihlari ijmo qilgan, o'zaro ixtilof qilgan o'rinlar mavjud¹⁴. Tadqiqot ishida faqihlar ijmosiga xilof fikrlarga hanafiy mazhabi faqihlarining raddiyalari berilgan hamda mazhab fikrlari mustahkamlagan¹⁵.

Shuningdek, ayollar va erkaklarga xos bo'lgan, g'ayri dinlarning diniy shiori aks etgan, jonli narsalarning surati chizilgan yoki uning shaklida yasalgan taqinchoqlardan foydalanishi mumkin emas¹⁶. Hadis taqozosiga ko'ra o'ta qimmatbaho taqinchoqlardan foydalanib isrofgarchilikka yo'l qo'yish yoki umuman ziynatlanishni tark qilib, atrofda gilarni o'zidan uzoqlashtirishdan

¹⁴ برهان الدين محمود بن أحمد البخاري. المحيط البرهاني في الفقه النعماني. - ج. 5. - ص. 346. علاء الدين الكاساني. بدائع الصنائع في ترتيب الشرائع. - ج. 6. - ص. 519. أحمد بن علي بن حجر العسقلاني. فتح الباري بشرح البخاري. - مصر: المكتبة السلفية، 1390. - ج. 10. - ص. 317. أبو زكريا محيي الدين يحيى بن شرف النووي. المنهاج شرح صحيح مسلم بن الحجاج. - بيروت: دار إحياء التراث العربي، 1392. - ج. 14. - ص. 33. عبد الرحمن بن أبي بكر، جلال الدين السيوطي. حاشية السندي على سنن النسائي. - حلب: مكتب المطبوعات الإسلامية، 1986. - ج. 8. - ص. 157.

¹⁵ أدب الزفاف في السنة المطهرة. - ص. 118-88.

¹⁶ شمس الدين أحمد قاضي زاده. تكملة شرح فتح القدير المسماة: «نتائج الأفكار في كشف الرموز والأسرار». - لبنان: دار الفكر، 1970. - ج. 10. - ص. 22. أحمد الدردير. الشرح الكبير على مختصر خليل. - بيروت: دار إحياء الكتب العربية، 2010. - ج. 1. - ص. 63. أبو زكريا محيي الدين يحيى بن شرف النووي. روضة الطالبين وعمدة المفتين. - بيروت: المكتب الإسلامي، 1991. - ج. 2. - ص. 263.

qaytarilgan. Shuningdek, bayram, xursandchilik, aza, mahzunlik kunlarida, er, mahram yoki begona shaxslar huzurida ziynatlanish hukmlari orasidagi farqlar belgilab berilgan¹⁷. Qimmatbaho toshlardan iborat ziynat buyumlari kiyim hukmida bo‘lgani bois ularda kiyim kiyishning farz, vojib, sunnat, mustahab, muboh, harom bo‘lgan hukmlariga rioya qilish talab qilinadi. Taqinchoqdan madad so‘rash, baxt-saodat keltirishidan umidvor bo‘lish, ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshishida uni sababchi qilib ko‘rsatish kabi e’tiqodni buzilishiga sabab bo‘ladigan ishlardan saqlanish lozim.

Ikkinchi bobning “*Erkaklarning ma’danlar iste’moliga oid qarashlar tahlili*”, deb nomlangan bandida islom shariati erkaklarning ham o‘zlariga e’tiborli bo‘lib, tashqi ko‘rinishlarini ko‘rkam qilib yurishini buyurgani mulohaza qilinadi. Ziynatlanish bilan bir qatorda, viqor, salobat, g‘ayrat-shijoat kabi erkaklikka xos sifatlarni saqlab qolish lozimligi ta’kidlangan. Islom shariati nuqtai nazaridan qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlarni taqish erkaklarning ana shu sifatlariga putur yetkazishi e’tiboridan bu borada bir qancha ta’qiq va cheklovlar mavjud. Qimmatbaho taqinchoqlar bilan ziynatlanish ayollarga xos ish deya qaralgan. Shuning uchun ziynat bo‘lmagan ayrim o‘rinlardagina, zarurat sababli erkaklarning qimmatbaho toshlar iste’moliga ruxsat berilgan.

Erkaklarning tilla, kumush, javohir, yoqut, zabarjad mahsulotlaridan foydalanishiga oid hukmlar ayollar iste’molidan farqlangan¹⁸. Hanafiy mazhabi faqihlarining nazdida erkaklar kumush uzukdan foydalanishi joiz ekani aytilgan. Nabiy (s.a.v.) va sahobalar muhr bosishga ehtiyoji borligi uchun kumush uzuk taqqan. Shunga ko‘ra hanafiy mazhabida ham sulton va qozi kabi muhr yoki boshqa biror ish uchun uzuk taqishga ehtiyoji bor shaxslarga kumush uzuk taqish sunnat bo‘ladi¹⁹. Boshqa insonlar uchun kumush uzuk taqish joiz, taqmaslik esa afzal ekani aytiladi. Demak, kumush uzuk taqish erkak kishi uchun ziynat buyumlardan foydalanish borasidagi ta’qiqdan istisno qilingan. Bu haqida “Hidoya” asarida: “Kumush uzuk ziynat buyumi emas. Chunki u ziynat buyumi bo‘lganida erkaklarga ta’qiqlangan bo‘lar edi” deyilgan²⁰. Imom Abu Hanifaning nazdida qimirlab, zaiflashib qolgan tishlarni tilla bilan emas, kumush bilan qotirib, mahkamlab qo‘yish mumkin²¹. Burunni esa, tilladan ham yasatsa bo‘ladi. Imom Muhammadning nazdida esa muolaja uchun tilla va kumushdan barobar

¹⁷برهان الدين محمود بن أحمد البخاري. المحيط البرهاني في الفقه النعماني. - ج. 5. - ص. 346. علاء الدين الكاساني. بدائع الصنائع في ترتيب الشرائع. - ج. 6. - ص. 519.

¹⁸برهان الدين المرغيناني. الهداية في شرح بداية المبتدي. - مصر: مطبعة مصطفى البابي، 2003. - ج. 4. - ص. 82. بدر الدين العيني. البناء في شرح الهداية. - ج. 9. - ص. 282. أحمد بن محمد الصاوي. بلغة السالك لأقرب المسالك. - مصر: مكتبة ومطبعة البابي الحلبي، 1952. - ج. - ص. 25. محمد عرفة الدسوقي. حاشية الدسوقي. - مصر: دار إحياء الكتب العربية. 2010. - ج. 1. - ص. 62. يحيى بن شرف النووي. المجموع شرح المهذب. - المدينة المنورة: المكتبة السلفية، 2004. - ج. 6. - ص. 38. أبو الحسن الماوردي. الحاوي الكبير. - بيروت: دار الكتب العلمية. 2009. - ج. 3. - ص. 275. ابن قدامة. المغني. - القاهرة: دار الكتب العربي. 2008. - ج. 2. - ص. 606. أبو طيب صديق بن حسن القانوني. روضة الندية شرح درر البهية. - بيروت. دار المعرفة، 2015. - ج. 2. - ص. 217.

¹⁹أحمد بن غنيم النفراوي. الفواكه الدواني على رسالة أبي زيد القيرواني. - بيروت: دار الفكر، 2011. - ج. 2. - ص. 235. حاشية الخرشني على مختصر سيدي خليل. - بيروت: دار صادر، 2005. - ج. 1. - ص. 99. حاشية الدسوقي. - ج. 1. - ص. 63. مغني المحتاج - الشربيني - محمد الشربيني الخطيب. - بيروت دار إحياء التراث العربي، 2002. - ج. 1. - ص. 392. حاشية فليوبي وعميرة. - ج. 2. - ص. 24. علي بن سليمان المرادوي. الإنصاف في معرفة الراجح في الخلاف. - ج. 3. - ص. 142. مرعي بن يوسف الكرمي المقدسي. غاية المنتهى في الجمع بين الإقناع والمنتهى. - ج. 1. - ص. 314. منصور بن يونس البهوتي. شرح منتهى الإرادات. - بيروت: دار الفكر، 2008. - ج. 1. - ص. 404.

²⁰برهان الدين المرغيناني. الهداية في شرح بداية المبتدي. - ج. 4. - ص. 82. الموصلي. الإختيار. - ص. 82. البهوتي. كشف القناع. - ج. 2. - ص. 236. المرادوي. الإنصاف. - ج. 3. - ص. 142.

²¹فتاوى الهندية. - ج. 5. - ص. 336. بدر الدين العيني. البناء. - ج. 9. - ص. 237.

foydalanish mumkin. Imomlardan naql qilingan bu fatvolar muolaja ishi ziynat masalasidan farq qilishini ifodalaydi. Shunga ko'ra tilla va kumush mahsulotlaridan tish va burundan boshqa a'zolarining muolajasi uchun foydalanish mumkin bo'ladi. Hamda muolaja uchun ishlatilgan tilla va kumush ziynat buyumi sifatida yasalgan taqinchoqlardan farqli o'laroq kishining asliy hojatiga aylanadi va undan zakot vojib bo'lmaydi.

Ikkinchi bobning *“Maishiy hayotda ma'danlardan foydalanish hukmlari”* nomli bandidagi hukmlar erkak va ayollar uchun umumiy bo'lib, unda qimmatbaho toshlardan taqinchoqdan boshqa maqsadlarda foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Hanafiy, molikiy, shofeiyy (yangi qarashiga ko'ra), hanbaliy va zohiriylarda tilla va kumushdan yasalgan qoshiq, chinni, piyola, choynak, obdasta kabi idishlardan yeyish, ichish, tahorat qilish joiz emas. Bu borada idishning katta kichikligi o'zaro farqlanmaydi²². Demak, bugungi kunda insonlar orasida ommalashayotgan taom, ichimlik suvlari tarkibiga tilla mahsuloti qo'shgan holda iste'mol qilishlari shariat nuqtai nazaridan joiz emas. Shuningdek, hanafiy mazhabida tilla va kumushdan yasalgan buyumlarni saqlash joiz. Boshqa mazhab faqihlari bu masalada hanafiy mazhabi faqihlarining fikriga qo'shilmagan. Javohir, yoqut, olmos kabi ma'danlardan yasalgan idishlardan foydalanish, saqlash muboh ekaniga barcha mazhablar ittifoq qilgan.

Shuningdek, hanafiy mazhabida masjid-madrasa qurilishida, Qur'on yoki boshqa mo'tabar kitoblarning bezagida tilla va kumush hamda boshqa qimmatbaho toshlarni ishlatish joiz. Shofeiyy mazhabi faqihlari esa saqlash joiz bo'lmagan narsa bilan masjid, madrasa va kitoblarni bezab ham bo'lmaydi, deydi. Hanafiy mazhabi faqihlari o'z mazhabini hadis, qiyos va aqliy dalillar bilan quvvatlaydi²³. Ammo qimmatbaho toshlarga kishilar ehtiyojmand bo'lib turgan bo'lsa, ularni masjid va kitoblarning ziynatiga ishlatgandan ko'ra ehtiyojmandlar uchun sarflash afzal ko'riladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Qimmatbaho toshlarga oid moliyaviy masalalar va uning zamonaviy ahamiyati”** deb nomlanadi.

Bobning *“Naqd pul va tijorat mollarning zakotiga aloqador muammolar va ularning yechimlari”* nomli birinchi bandida qimmatbaho toshlar zakotiga doir masalalar o'rganilgan. *“Muxtasarul Viqoya”* asarida qimmatbaho toshlar zakoti ikki qismga ajratilishi aytilgan. Unga ko'ra, tilla va kumush shariat nuqtai nazaridan ثمن [saman] – “naqd pul”, yoqut, olmos, zabarjad, feruza kabi toshlar esa عروض [uruz] – “buyum” sanaladi. Naqd pul hisoblangan tilla va kumushdan zakot vojib bo'lishi uchun kishining moli shariat tomonidan belgilangan miqdor (nisob)ga yetishi talab etiladi. Uruz (buyum) hisoblangan qimmatbaho toshlar uchun nisob belgilanmagan. Shuning uchun ularning zakoti naqd pullarning nisobiga qiyoslanadi. Shuningdek uruzlardan zakot vojib bo'lishi uchun ular tijorat moliga aylanishi shart qilingan. Naqd pullar va tijorat mollardan zakot vojib

²² علاء الدين الكاساني. بدائع الصنائع في ترتيب الشرائع. ج. 5. ص. 132. برهان الدين المرغيناني. الهداية في شرح بداية المبتدي. ج. 4. ص. 78. القرافي. الذخيرة. ج. 1. ص. 67. حاشية الدسوقي. ج. 1. ص. 64. الشربيني. الإقناع. ج. 1. ص. 28. النووي. روضة الطالبين. ج. 2. ص. 264. المرदाوي. الإنصاف. ج. 1. ص. 79. البهوتي. شرح منتهى الإرادات. ج. 1. ص. 24. ابن حزم. المحلى. ج. 2. ص. 223.

²³ علاء الدين الكاساني. بدائع الصنائع في ترتيب الشرائع. ج. 5. ص. 132.

bo'lishining o'xshash va farqli tomonlari mavjud bo'lib, ushbu jihatlar dissertatsiyada batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, tangalardagi kumushning nisbati o'zgarishi bilan yuzaga kelgan muammolar natijasida Umar (r.a.) davrida amalga oshirilgan islohot orqali shar'iy dirham tushunchasi paydo bo'lgan.

Ma'dan, kanz va rikozdan olinadigan beshdan bir ulush hanafiy mazhabi faqihlarining nazdida zakot emas. Ammo shunday bo'lsada, manbalarda ma'dan, kanz masalalari zakot kitobi tarkibida keltiriladi. Shuningdek, ma'danlarning "dorul islom" (islom diyori) yoki "dorul kufr" (kufr diyori), shaxsiy yoki muboh yerlardan topilishiga oid masalalarga zamonaviy yechim berish zarur. Zero bu atamalar o'rta asrlardagi voqelikka asosan qo'llanilib, hozirgi kunda ularning islom ulamolari nazdidagi talqini o'zgargan. Shunga ko'ra ushbu paragrafda ma'danlar topilgan joylarga oid hukmlarni zamonaviy qarashlarga muvofiqlashtirish masalasi tahlil qilindi.

"Ma'danlarning savdosi va vaqfiga doir hukmlar" nomli ikkinchi badda qimmatbaho toshlarning "mutlaq", "muqoyaza", "salam", "nasiya", "sarf" nomli savdo turlariga oid masalalar o'rganildi. Ushbu savdo turlaridan "sarf" savdosi muhim ahamiyat kasb qilgani bois uning hukmlari batafsil tahlil qilindi. Movarounnahr fiqh manbalaridan "Badoeus-sanoe" kitobida "sarf" savdosiga bunday ta'rif berilgan: "Sarf bu biror naqd pulni o'ziga jinsdosh yoki boshqa jinsdagi naqd pul evaziga sotishdir"²⁴. Ushbu savdo bilan shug'ullanuvchilar esa "sarrof" deyiladi. Fiqhiy istilohda naqd pullar ikki: xilqiy va istilohiy qismga ajratiladi. Xilqiy pullar deganda tilla va kumush, istilohiy pullar deganda tilla va kumushdan boshqa odamlar orasida ayirboshlash vositasiga aylangan pullar tushuniladi. Xilqiy pullar istilohiy pullardan farqli o'laroq tanga shaklida emas, balki, buyum shaklida bo'lsa ham naqd pul hukmida bo'ladi. Shunday ekan, tilla buyumlarni tilla buyum yoki tilla tanga evaziga ayirboshlash ham sarf deyiladi²⁵. Qimmatbaho toshlarni ayirboshlashga oid masalalar hozirgi kundagi zamonaviy pullar savdosiga oid hukmlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

